

BRIFING



BRIFING

Termiz shahar hokimining birinchi o'rinbosari Elamanov G'ayrat Abdievich ishtirokida brifing o'tkazildi.

Mavzu: Termiz shahrini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar.

Termiz shahrini ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish yo'lida, shahar hokimligining "Moliya iqtisod va kambag'allikni qisqartirish" masalalari majmuasi tomonidan qator ijobiy ishlar amalga oshirildi.

Jumladan;

Kichik biznes subektlari

Bugungi kunda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'ektlari soni 4205 tani tashkil etib, shundan kichik biznes sub'ektlari soni 3679 tani tashkil etadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,8 % ga ko'paygan. (2021 yilda 3 725 tani tashkil etgan.)

Joriy yilda kichik biznes sub'ektlarini o'tgan yilga nisbatan ikki barobarga oshirish rejasi 1740 tani tashkil etadi. (2021 yil rejasi 870 tani tashkil etgan.)

Yanvar-mart oyida belgilangan reja 325 tani tashkil qilib, amalda 378 ta ko'payib, rejaga nisbatan 116%ga bajarildi.

Yakka Tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bo'yicha;

Termiz shahrida 1461 ta YaTTlar faoliyat ko'rsatib, shundan

323 tasi yanvar-may oylarida yangidan tashkil topdi. Rejaga nisbatan 132,3 % 79 taga ko'p tashkil topdi. (Reja 244ta).

Jumladan:

Soliq tushumlarini quyidagilar hisobidan tushirish ta'minlanadi.:

- Davlat mulkini sotish va ijaraga berishdan mahalliy byudjetlarga o'tkaziladigan tushumlarni ta'minlash hisobidan;

- Tadbirkorlik sub'ektlarida norasmiy tarzda ishlayotgan ishchi va xizmatchilarning faoliyatini qonuniylashtirish hisobidan;

- Davlat ro'yhatidan o'tmasdan faoliyat yuritayotgan jismoniy shaxslarning faoliyatini rasmiylashtirishga ko'maklashish hisobidan;

- Yakka tartibdagi tadbirkorlarning faoliyatini tiklash va faoliyat turini moslashtirish hisobidan;

- Faoliyatini to'xtatgan korxonalarni tiklash, moliyaviy sog'lomlashtirish, yangi loyihalarni ishga tushishi hamda yangi yaratiladigan ish o'rinlari va ish xaqi oshishi hisobidan

- Faoliyat ko'rsatmayotgan va samarasiz foydalanilayotgan binolar va qurilishi tugallanmagan ob'ektlarning mulkdorlariga ta'sirchan soliq rejimini qo'llash va boshqa yo'nalishlar hisobidan.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida ajratilgan kreditlar to'g'risida:

Ijtimoiy dasturlar bo'yicha;

Aholini o'zini o'zi band qilib tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishida ijtimoiy dasturda jami bo'lib 193 ta yuridik va jismoniy shaxslarga 7,1 mlrd so'm kredit ajratildi.

Jumladan;

"Har bir oila - tadbirkor" dasturi bo'yicha (PQ-4231); jami soni 132 taga 3,7 mlrd so'm

"Yoshlar - kelajagimiz" dasturi bo'yicha (PF-5466); jami soni

4 taga 8,8 mln so'm

Mahalliy hokimliklar huzuridagi jamg'armalardan; jami soni

3 taga 62 mln so'm

Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi bo'yicha (PQ-3856); jami soni 3 taga 62 mln so'm

Hunarmandchilikni rivojlantirish bo'yicha (PQ-4539); jami soni 54 taga 2,4 mlrd so'm tashkil qildi.

Faoliyat ko'rsatmayotgan umumiy korxonalar bo'yicha:

Termiz shahrida 2022 yil 1 mart xolatiga jami faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 4205 tani tashkil etadi. Karantin davrida sektor rahbarlari hamda mutasaddi tashkilot rahbarlari bilan birgalikda korxonalar faoliyatidagi mavjud muammolar o'rganib chiqilib 94 ta korxonani mavjud muammolari bartaraf etilib, faoliyatini tiklashga erishildi. Faoliyatini to'xtatgan korxonalarni 69 tasini muammolarini o'rganish jarayonida 8 ta korxonalar rahbari Afg'oniston Islom Respublikasi fuqarosi bo'lganligi hozirgi kunda Afg'oniston respublikasiga ketganligi, 4 ta korxonaning asbob-uskunalar qisman Xitoy va Pokiston davlatlaridan olib kelinganligi pandemiya sababli qolgan asbob uskunalar olib kelinishi kechikkanligi, 2 ta korxonalar Termiz shahridan ro'yhatdan o'tib faoliyatini Qumqurg'on tumanida davom ettirayotganligi, 7 ta korxonalar hisob raqami ochmasdan boshqa faoliyat turiga o'tganligi, hamda 4 ta korxonalar VM 630-son qaroriga asosan korxonalar faoliyatini ixtiyoriy tugatilganligi aniqlandi. Qolgan 44 ta korxonalarda mavjud muammolar o'rganish ishlari davom etirilmoqda.

BANDLIK DASTURI

Termiz shahrida joriy yilda yangidan ish o'rni yaratishda tavsiyaviy rejada jami 261 ta loyiha(hududiy va tarmoq loyihalari) 911 ta ish o'rni yaratilishi belgilangan bo'lib, amalda rejadagi loyihalardan 409 ta yangi ish o'rni yaratildi. Qolgan 502 ta ish o'rnini qo'shimcha yangidan tashkil etilgan tadbirkorlik faoliyati hisobidan bajarish amalga oshirildi. Natijada shaharda joriy yilning yanvar-mart oylarida jami bo'lib 1241 ta yangi ish o'rni tashkil qilinib, rejaga nisbatan 136,2 foizga bajarilishga erishildi.

Shundan

3. Hududiy investitsiya loyihalari bo'yicha-347 ta
4. Yangidan tashkil etilgan YaTTLar-323 ta
5. Kichik biznes sub'ektlari-378 ta
6. Ijtimoiy dasturlar orqali-193tani tashkil qiladi.

Jumladan;

2021 yil davomida jami 58 ta umumiy qiymati 437,5 mlrd.so'mlik, shundan korxonalar o'z mablag'lari hisobidan 107,3 mlrd. so'mlik va tijorat banklari kreditlari hisobidan 85,8 mlrd.so'mlik hamda xorijiy investitsiya hisobidan 14,0 mln. dollarlik va xorijiy kredit liniya hisobidan 11,9 mln. dollarlik loyihalarning amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo'lib, shundan 1 166 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi rejalashtirilgan. Amalda esa joriy yilning yil 01 mart holatiga 39 ta loyiha amalga oshirilib, jami loyiha qiymati 113,2 mlrd. so'm. ya'ni o'z mablag'idan 35,6 mlrd. so'm, bank kredit mablag'laridan 64,0 mlrd. so'mni tashkil etib, yangidan 347 ta yangi ish o'rinlari yaratilishiga erishildi.

2022 yil yanvar-mart holatiga umumiy qiymati 90,6 mlrd. so'mlik 22 ta loyiha amalga oshirilishi natijasida 286 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi belgilangan. Amalda 121,2 mlrd. so'mlik 39 ta loyiha muddatidan oldin ishga tushirilib, jami 347 ta yangi ish o'rinlari yaratilib, rejaga nisbatan 121,3 foizga bajarilgan.

E'tiboringiz uchun rahmat!